



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
BUYURUQ**

2023-yil 17-oktabr

157-sonli

Toshkent sh.

**Suv xo'jaligi sohasida komplayens
nazorat menejmenti tizimlarini
tashkil etish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va viloyat tizim tashkilotlarda ochiqlik, adolatlilik, tenglik, qonun ustuvorligi, shuningdek, xodimlarning odob-axloq va jamiyatda yurish-turish hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatlarini shakllantirish maqsadida

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan ishlab chiqilgan va 3319-raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to'g'risidagi namunaviy nizom **rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin**.

2. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2022-yil 15-iyuldaggi 143-tonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va viloyat tizim tashkilotlarda ochiqlik, adolatlilik, tenglik, qonun ustuvorligi, shuningdek, xodimlarning odob-axloq va jamiyatda yurish-turish hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatlarini shakllantirish bilan bog'liq hujjatlar quyidagi tartibda tasdiqlansin:

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va tizim tashkilotlarda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati 2-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va tizim tashkilotlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti 3-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va tizim tashkilotlari xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnomasi 4-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va tizim tashkilotlarda kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnomasi 5-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va tizim tashkilotlariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnomasi 6-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va tizim tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom 7-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va tizim tashkilotlariga aloqa

kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti 8-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va tizim tashkilotlarida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti 9-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va tizim tashkilotlari xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglamenti 10-ilovaga muvofiq;

Ichki audit, komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig‘i hamda Ichki audit, komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi bosh mutaxassisining lavozim yo‘riqnomalari tasdiqlansin.

2. Ichki audit, komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi (Bahodirov) **har chorak yakuni bo‘yicha** vazirlik markaziy apparati, respublika va viloyat tizim tashkilotlari rahbar-xodimlari ishtirokida korrupsiyaviy omillar hamda odob-axloq qoidalarining buzilishi holatlari yuzasidan rahbariyat muhokamasiga axborot kiritilishni ta’minlasin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vaziri va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari boshliqlariga:

mazkur buyruqdan kelib chiqib **10 kun muddatda** ichki idoraviy hujjatlarini tasdiqlash;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari va ularning bo‘linmalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish va xodimlarning odob-axloq qoidalariga rioya etilishi ustidan shaxsan nazorat olib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rnbosari A.Nazarov zimmasiga yuklatilsin.

Asos: *O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan ishlab chiqilgan va 3319-raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizom.*

Vazir

Sh.Xamrayev

